

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2023 yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 1338,1 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 1205,1 mlrd. so‘mni (102,4 %), o‘rmon xo‘jaligi 118,5 mlrd. so‘mni (102,2 %), baliqchilik xo‘jaligi 14,5 mlrd. so‘mni (107,6 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 3,3 % ni tashkil qildi.



1338,1
mlrd. so‘m




01 1205,1 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar


02 118,5 O‘rmon xo‘jaligi

03 14,5 Baliqchilik xo‘jaligi

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot
(xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati**



**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**



2023 yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (216,4 mlrd. so‘m) va Chimboy (156,7 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo‘ynoq (17,5 mlrd. so‘m) tumani va Nukus shahar (14,2 mlrd. so‘m)larni keltirib o‘tish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

Hosil yig‘imi. 2023 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 247 tonna sabzavot yetishtirildi.

Bundan tashqari barcha toifadagi xo‘jaliklarda 90,6 ming tonna kartoshka, (2021 yilga nisbatan 1,4 foizga ko‘p), 314,6 ming tonna sabzavot (4,3 foizga ko‘p) yig‘ib olindi, 173,5 ming tonna poliz ekinlari (5,3 foizga ko‘p), 64,9 ming tonna meva va rezavorlar (4,7 foizga ko‘p) va 11,5 ming tonna uzum (3,8 foizga ko‘p) yetishtirildi.

2023 yilning yanvar-martida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Fermer xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘sish sur‘ati, foizda	tonna	o‘sish sur‘ati, foizda	tonna	o‘sish sur‘ati, foizda
Jami don	223 839	105,0	35 527	95,7	27 737	133,4
Kartoshka	29 282	101,0	60 719	101,5	583	101,6
Sabzavotlar	-	-	129	52,4	118	33,2
Poliz	91 382	110,0	78 736	101,6	3 356	81,0
Mevalar va rezavorlar	28 749	112,7	26 795	103,0	9 354	89,3
Uzum	4 609	108,0	6 068	101,7	854	96,7




Dehqonchilik

2023 yilning yanvar–mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 103,5 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 95,7 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 8,8 % ni tashkil qildi.


Donli ekinlar

Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, %




● Fermer xo‘jaliklari

Hajmi, ming tonna




● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

O‘sinh sur‘ati, % da





● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvch tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna.



Sabzavotlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2023 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 247 tonna sabzavotlar (2022 yilning yanvar-martiga nisbatan 39,5 %) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 52,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da





2022 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 90,6 ming tonna kartoshka (2021 yilning yanvar-martiga nisbatan 1,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 67,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



Poliz



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, %
da**





2022 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 173,5 ming tonna poliz (2021 yilning yanvar-martiga nisbatan 5,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 52,7 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.

- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



Mevalar va rezavorlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2022 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 64,9 ming tonna mevalar va rezavorlar (2021 yilning yanvar-martiga nisbatan 4,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 44,3 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, tonna



O‘shish sur‘ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, %
da



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 11531 tonna uzum (2021 yilning yanvar-martiga nisbatan 3,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 52,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2023 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1077,5 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 91,2 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2023 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 16,4 ming tonna go‘sh (2022 yilning yanvar-martiga nisbatan 3,0 % ga ko‘p), 53,7 ming tonna sut (3,5 % ga ko‘p), 81,1 mln. dona tuxum (1,0 % ga ko‘p) va 766 tonna baliq (118,4 %) ovlandi.




Go‘sh t (tirik vaznda)


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2023 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 16,4 ming tonna go'sht (2022 yilning yanvar-martiga nisbatan 3,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.


- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming tonna.



O‘sish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2023 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 53,7 ming tonna sut (2022 yilning yanvar-martiga nisbatan 3,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 89,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut yetishtirish hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O‘sish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2023 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 81,1 mln.dona tuxum (2022 yilning yanvar-martiga nisbatan 1,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O‘sinh sur‘ati, % da




*Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi*




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 766,3 tonna (2022 yilning yanvar-martiga nisbatan 118,4 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 49,4 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ovlangan
baliq hajmi, tonna**




Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023 yilning 1 aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 94,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 11,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 86,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 21,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 75,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,2 % i fermer xo‘jaliklariga, 84,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 8,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2023 yilning 1 aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:


- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1184 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2022 yilning 1 apreliga nisbatan 23,7 ming boshga (2,0 %) ko‘paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 94,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

● Fermer xo‘jaliklari ● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari ● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, ming bosh




Soni, ming bosh




Sigirlar

O‘sinh sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari


● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023 yilning 1 aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 342,4 ming boshga yetdi.
- sigirlarning bosh soni 2022 yilning 1 apreliga nisbatan 7,5 ming boshga (2,2 %) ko‘paydi.
- sigirlar bosh sonining 92,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha
sigirlarning bosh soni, ming bosh



Qo‘y va echkilar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2023 yilning 1 aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:


- qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1179,3 ming boshga yetdi.
- qo‘y va echkilarning bosh soni 2022 yilning 1 apreliga nisbatan 15,2 ming boshga (1,3 %) ko‘paydi.
- qo‘y va echkilar bosh sonining 86,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

Fermer xo‘jaliklari



Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha qo‘y va echkilarning bosh soni, ming bosh



Otlar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi





2023 yilning 1 aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- otlarning umumiy soni 26055 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2022 yilning 1 apreli nisbatan 613 boshga (97,7 %) kamaydi.
- otlar bosh sonining 75,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha otlarning bosh soni, bosh



Parrandalar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yilning 1 aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 4732,4 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2022 yilning 1 apreliga nisbatan 88,6 ming boshga (98,2 %) kamaydi.
- parrandalar bosh sonining 84,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha parrandalarning bosh soni, ming bosh

